

**TA'LIM, SOG'LIQNI SAQLASH VA MEHNAT
MUNOSABATLARIDAGI KORRUPSION HOLATLARNI OLDINI
OLISH MASALALARI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Hayrullayeva Zulfizar Hamzayevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat munosabatlaridagi korrupsiya muammolarini tahlil qiladi va ularning oldini olish bo'yicha mumkin bo'lgan yechimlarni ko'rsatadi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy barqarorlikni buzadi, balki ijtimoiy adolatni ham izdan chiqaradi. Shuning uchun korrupsiyasiz jamiyat qurish har bir mamlakat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, sog'liq, mehnat munosabatlari, korrupsiya, rivojlanish, adolat, jamiyat, mahalla, qonun, tibbiyot, fuqaro.*

Аннотация: *В этой статье анализируются проблемы коррупции в образовании, здравоохранении и трудовых отношениях, а также предлагаются возможные решения для ее предотвращения. Коррупция не только нарушает экономическую стабильность, но и подрывает социальную справедливость. Поэтому создание общества без коррупции является одной из неотложных задач, стоящих перед каждым государством.*

Ключевые слова: *образование, здоровье, трудовые отношения, коррупция, развитие, справедливость, общество, район, закон, медицина, гражданин.*

Annotation: *This article analyzes the problems of corruption in education, healthcare, and labor relations and presents possible solutions for preventing it. Corruption not only disrupts economic stability but also*

undermines social justice. Therefore, building a society free of corruption is one of the urgent issues facing every country.

Key words: *education, health, labor relations, corruption, development, justice, society, neighborhood, law, medicine, citizen.*

Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir. Korrupsiya ko'plab ta'riflar berilgan va turlicha talqin qilingan.

Korrupsiya (lotincha: *corrumpō* – aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda ko'plab huquqiy asoslar yaratilgan, qonun va qarorlar chiqarilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarishi kurash Agentligi tashkil qilingan. Lekin bu huquqiy asoslar mamlakatimizda jamiyatdagi turli sohalarida korrupsiyaga barham berishda yetarli bo'lmayapti. Korrupsiya ayniqsa ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat munosabatlarida jiddiy muammo sifatida yuzaga kelmoqda. Bu holat jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va insonlar o'rtasida ishonchni yo'qotadi. Korrupsiya, davlat va jamoat xizmatlarining samaradorligini pasaytirib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiyasiz jamiyatni yaratish uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat munosabatlari sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish, nafaqat bu sohalarning samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda adolat, tenglik va yaxshilangan xizmat ko'rsatishni ta'minlashga yordam beradi. Shu bois, ushbu sohalarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish muhim vazifadir.

Ta'lim sohasida korrupsiya turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bular o'qituvchilar va ma'muriyatning pora olishlari, o'quvchilardan noqonuniy to'lovlar talab qilinishi, imtihonlarda pora orqali natijalarga erishish va boshqa ko'plab holatlar bo'lishi mumkin. Korrupsiya ta'lim tizimida tengsizlikni keltirib chiqaradi, talabalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kamaytiradi va jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikka olib keladi.

Korrupsiyani oldini olish uchun quyidagi choralarni ko'rish mumkin:

Shaffoflikni oshirish: Ta'lim tizimidagi barcha jarayonlar, jumladan o'quv rejalari, imtihonlar, qabul va litsenziyalash jarayonlari shaffof bo'lishi kerak. Bu jarayonlarga monitoring va audit tizimini joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim xodimlari uchun qattiq nazorat va ma'naviy tarbiya: O'qituvchilar va

ma'muriyatning professional etikasi va huquqiy bilimlarini oshirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan treninglar va ta'lim dasturlari tashkil etish kerak.

O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullangan korrupsiyaga qarshi kurash Qonunining 18-moddasida "Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiqadi." Ushbu manbaa yurtimizda ta'lim sohasidagi korrupsiyani oldini olishda asosiy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning huquqlarini himoya qilish: O'quvchilarga ta'lim olish

jarayonidagi huquq va majburiyatlarini tushuntirish, ular o'rtasida korrupsiyaning zararli oqibatlarini tushunishlari uchun targ'ibot ishlari olib borish lozim.

Sog'liqni saqlash sohasidagi korrupsion holatlar bemorlarga xizmat ko'rsatish sifatini pasaytiradi va resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib keladi. Sog'liqni saqlashda korrupsiyaning turli shakllari, masalan, dori-darmonlar va tibbiy xizmatlar uchun noqonuniy to'lovlar, muassasalarda ishga joylashishda pora talab qilish, yoki tibbiy sug'urta kompaniyalaridan noqonuniy foyda olish kabi holatlar mavjud. Ushbu sohadagi korrupsiya davlat siyosati darajasida ahamiyatli va dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 oktyabrdagi "Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6110-sonli Farmoni asosida sog'liqni saqlash tizimida «Korrupsiyasiz soha» loyihasini amalga oshirish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xarita"si tasdiqlanib, ijroga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlar tibbiyot sohasidagi korrupsion holatlarni kamaytir Korrupsiya darajasini pasaytirish uchun quyidagi qadamlar talab etiladi:

Xulosa

Ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat munosabatlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlash uchun zarurdir. Shu maqsadda, shaffoflikni ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, mehnat qonunchiligini kuchaytirish va ma'naviy tarbiyani oshirish kabi choralarning amalga oshirilishi jamiyatda korrupsiyaning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish, faqat hukumatning emas, balki har bir fuqaroning mas'uliyatidir, chunki bu jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshikurashga doir farmonlari va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida» gi qonuni.
3. Transparency International: Korrupsiya darajasi bo'yicha xalqaro hisobotlar.
4. Jahon banki (World Bank) tomonidan e'lon qilingan korrupsiyaga qarshi strategiyalar.
5. Korrupsiya va jamiyat: iqtisodiy va ijtimoiy tahlil ilmiy maqolalar to'plami.
6. O'zbekiston milliy axborot agenligi tomonidan chop etilgan korrupsiyaga oid maqolalar.
7. United Nations office on Drugs and Crime (UNODC) tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ko'rsatmalar